

AZIZBEK ISMAILOV

Alfraganus Universiteti
Iqtisodiyot kafedrası, dotsent v.b.
ORCID: 0009-0006-3676-5349
a.ismailov@afu.uz

AHOLI BANDLIGI SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi bandligiga ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida qaraladi. Aholi bandligi iqtisodiy tushuncha sifatida aholining iqtisodiy faol qismini ishlab chiqarish vositalari bilan birlashtirish amalga oshadigan, bevosita mehnatni amalga oshirish jarayonida tadqiq etiladi. Aholi bandligi ijtimoiy ishlab chiqarishga xos xususiyat bo'lib, unda mehnat buyumlarini o'zgartirish bo'yicha ma'lum bir sifatlarga ega bo'lgan ishchilarning birgalikdagi faoliyati amalga oshadi.

Аннотация: В этой статье занятость рассматривается как социально-экономическая концепция. Занятость населения как экономическое понятие исследуется в процессе осуществления непосредственного труда, при котором происходит объединение экономически активной части населения со средствами производства. Занятость населения-характеристика общественного производства, при которой осуществляется совместная деятельность работников, обладающих определенными качествами по изменению предметов труда.

Annotation: In this article, employment is considered as a socio-economic concept. Employment of the population as an economic concept is studied in the process of direct labor, in which the economically active part of the population is combined with the means of production. Employment of the population is a characteristic of social production, in which the joint activity of workers with certain qualities to change the objects of labor is carried out.

Kalit so'zlar: Bandlik, ijtimoiy, mamlakat, aholi, iqtisodiyot, mehnat.

KIRISH:

Mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga muhim ta'sir ko'rsatadigan bandlik muammosi bugungi kunda respublika fuqarolari turmushining uzviy qismi bo'lib qolmoqda. Aholi bandligi butun iqtisodiy tizim amal qilish natijalarining ijtimoiy va iqtisodiy natijalarini o'zida birlashtiradigan jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim yo'nalishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu bois, bandlik mamlakat farovonligi, islohotlar tanlangan yo'lining samaradorligi, ularning aholi uchun jozibadorligi haqida mulohaza qilish imkonini beradigan o'ziga xos ko'rsatkich hisoblanadi.

Inqiroz sharoitida aholi bandligi davlat tartibga solish ustuvor yo'nalishlari qatorida turadi. Bunday sharoitda bandlik siyosatini butun jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, mehnat bozori va mehnat sohasiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish orqali har bir fuqaro bandligi sohasida ijtimoiy himoyalanganlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida o'rganish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida davlat bandlik siyosati investitsion, moliya-kredit, soliq va ijtimoiy siyosat choralari yordamida amalga oshiriladi. Ushbu tadbirlar, birinchi navbatda, mamlakatda ish o'rinlarini saqlab qolish va rivojlantirishga yordam beradigan ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirishga, mehnat resurslari harakatchanligini oshirishga, egiluvchan mehnat tartibotlarini rag'batlantirishga, yangi texnologiyalarni yaratishga yo'naltirilgan[1]. Bandlik siyosatida asosiy vazifalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Ish o'rinlari tashkil etilishini rag'batlantirish va aholi bandligiga ko'maklashish, shu jumladan, ish o'rinlarini tashkil etishga doir davlat buyurtmasini hamda ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish orqali ko'maklashish;

2) Ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish choralari ko'rish, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko'maklashish;

3) Yoshlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yoshlarni, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari, kasb-

hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishni ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish;

4) Aholi bandligi sohasida

siyosatining asosiy yo'nalishlari 3.1.1-rasmda keltirilgan.

Davlat darajasida bandlik siyosatining asosiy yo'nalishlari shakllanadi, uning maqsadi belgilanadi va bandlik siyosatini demografik,

**1-rasm. Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosati yo'nalishlari**

zamonaviy kasbiy standartlarni joriy etish, mehnatni normalashtirish hamda mehnatga haq to'lash mexanizmlarini takomillashtirish;

5) Aholi bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

6) Ishga joylashtirish jarayonlariga ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, aholining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilmani va raqobat muhitini yaratish;

7) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida ko'maklashish, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini ta'minlash.

Davlat bandlik siyosati davlat tomonidan barcha darajalarda olib boriladigan ijtimoiy siyosatning uzviy qismi hisoblanadi. Bandlikka ko'maklashish sohasidagi davlat

moliyaviy, migratsion, ijtimoiy, investitsion, tashqi iqtisodiy siyosati bilan kelishtirish asosiy vazifalari hal qilinadi. Ushbu darajada ishga joylashtirish umumiy siyosati va ishsizlarni qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqiladi.

Mintaqa darajasida davlat tomonidan ishlab chiqilgan va belgilangan bandlik siyosati asosiy va ustuvor yo'nalishlarini hisobga olinadi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu darajada ayrim tadbirlar, masalan, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va fermerlikni rivojlantirish bo'yicha tadbirlar (aholi o'zini o'zi band qilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi) samarali ahamiyat kasb etadi. Bandlik siyosati manfaatlarida mintaqa hukumati turar-joy, yo'l qurilishiga ko'maklashish borasidagi dasturlarni amalga oshirishi mumkin. Shu tariqa, ushbu dasturlar qo'shimcha zaruriy ish o'rinlarini ta'minlashi mumkin, bu ayniqsa, inqiroz davrida ushbu turdagi ishlar uchun xom ashyo tayyorlash, yetkazib berish bilan shug'ullanadigan mintaqadagi boshqa korxonalarni

faollashtirgani bilan ahamiyatlidir.

Mahalliy darajada aholi bilan bevosita ishlar olib boriladi va ishga joylashtirish, fuqarolarni o'qitish (qayta o'qitish) sohasidagi bandlik siyosati qoidalarini amaliyotga joriy etiladi, ishsizlarga nafaqa to'lovi amalga oshiriladi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari aholi bandligiga ko'maklashishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni tashkil qilish va moliyalashtirishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lib, ular orasida jamoat ishlarini tashkil qilish, o'smirlarni vaqtinchalik ishga joylashtirish (o'qishdan bo'sha vaqtda) hamda vakansiyalar yarmarkasi, abituriyentlar kunini o'tkazish, birinchi marta ish izlovchilarga ishga joylashishda ko'maklashish qonunan belgilab qo'yilgan.

Bandlik siyosati turlari haqida ham eslatib o'tish joiz. Bandlik siyosatining asosiy turlari sifatida faol va passiv siyosat ajratiladi.

Faol bandlik siyosati – bu davlat tomonidan ishsizlikni uning tabiiy (eng kam) darajasiga erishish maqsadida amalga oshiriladigan tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy tadbirlar majmuidir. U o'z ishini ochish bo'yicha kurslar va seminarlar vositasida tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishni; kasbga yo'llash, qayta o'qitish, malaka oshirishni; imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus ish o'rinlarini tashkil etishni o'z ichiga oladi. "Ilgarilab o'ynash"ga intilish, inqirozning yuz berishiga yo'l qo'yimaslikka urinish bandlik siyosati ushbu turining xususiyati hisoblanadi. Shu sababli faol siyosatga yana ishlovchilarning ommaviy ishdan bo'shatilishi oldini olish, iqtisodiyot va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq samarasiz ish o'rinlarini qayta yo'naltirish va boshqalar bo'yicha ko'plab tadbirlar ham kiradi. Faol bandlik siyosati davlatga ko'proq foydali, chunki uning asosida yotadigan choralar unga qo'yilgan mablag'larning qoplanishi va qaytaruvchanligini ko'zda tutadi.

Passiv bandlik siyosati, birinchi navbatda, ishsizlik oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan davlat tadbirlari majmuini o'zida mujassamlashtiradi. Bunga ishsiz sifatida tan olingan fuqarolarni ishsizlik nafaqasi ko'rinishida moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ish o'rinlarini saqlash kiradi. Boqimandalarga haq to'lash amal qiladi. Ushbu bandlik siyosatining xususiyati shundan iboratki, u mutlaqo ishsizlarga yordam bilan cheklanadi.


Ba'zan kamayib boruvchi passiv

bandlik siyosati ham ajratiladi. U ham ishsizlarga moddiy yordamni ko'zda tutadi. Biroq ishini yo'qotganlar uchun ish o'rinlarini izlash va tanlash bo'yicha keng va turli-tuman xizmatlar doirasini taqdim etadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, davlat tomonidan mehnat bozorini tartibga solish va o'zini o'zi tartibga solish mexanizmlarini uyg'unlashtirish aholi bandligini tartibga solishning samarali usuli bo'lib qoldi. Bandlikni

kasbga yo'llash tizimi uchun mehnat bozorini axborotlar bilan ta'minlash;

- mehnat huquqidan, ish kuni davomiyligi, fuqaro mehnat hayoti davrini o'rnatish, ishlovchilar huquqlarini himoyalashdan boshlab, mehnat munosabatlarining aniq tor sohasidagi tartiblar, me'yorlar, standartlar, cheklovlar, uslubiy tavsiyalar (bu ishlovchilarni ishga yollash tizimiga, mehnat shartnomalarini tuzish, migrantlarga kvotalarni belgilash, ularning



3.1.2-расм. Аҳоли бандлигини тартибга солиш йўналишлари

tartibga solishning asosiy yo'nalishlari 2-rasmda to'liq keltirilgan.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari tajribasi ko'rsatishicha, aholi bandligini tartibga solish tizimida quyidagi usullar ajratiladi:

- foyda orqali ta'sir ko'rsatuvchi va xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy manfaatlarini rag'batlantiruvchi iqtisodiy usullar bo'lib, bu yerda mexanizmlar orasida eng samaralisi sifatida soliqqa tortish, imtiyozli kreditlash, ish o'rinlarini yaratish va saqlab qolishga, kadrlarni kasbga o'qitish, innovatsion tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tarif siyosati hamda budjet siyosati vositalari ajratiladi;

- tashkiliy usullar, ular orasida asosiy rol davlat va nodavlat aholi bandligi markazlarini yaratish, tadbirkorlar va yollanma ishchilar, mehnat sohasida maslahat, huquqiy xizmatlar markazlari, kasbiy ta'lim tizimida markaz o'quvchi yoshlarini

- mehnat va hayot faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, aholi bandligini qo'llab-quvvatlash fondiga majburiy ajratmalar, ijtimoiy kafolatlar me'yorlari va b.ga tegishli) bilan yakunlagan holda davlatdagi mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi olrqali ta'sir ko'rsatadigan ma'muriy usullar.

Aholi bandligini tartibga solish va "bozor buzilishlari" bilan kurashda davlat aralashuvi amaliyoti mehnat bozoridagi siyosat vositalarini aholi bandligiga ko'maklashish faol siyosati tadbirlaridan foydalanishni kengaytirish tomoniga o'zgartirish zaruratini namoyish etadi. Biroq mehnat bozorini tartibga solish va boshqa, muntazam o'zgarib boruvchi sharoitlarga taalluqli mexanizmlarni ishlab chiqish va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Aholi bandligini boshqarishda majmuaviy ta'sir ko'rsata oladigan ta'sirchan dasturiy-maqсадli usulga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bandlikni tartibga solishda quyidagi dasturlar amal qilishi mumkin:

- masalan, sanoatni rivojlantirish sohasidagi ijtimoiy dasturlar (ular bir vaqtning o'zida ham iqtisodiy o'sishni, ham bandlik ortishini ta'minlashi mumkin);

- qo'shimcha kasbiy o'qitish va qayta tayyorlashga barcha muhtojlarga qulayliklarni ta'minlashga qaratilgan dasturlar;

- kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga ko'maklashish bo'yicha maxsus dasturlar (yakka xususiy va oilaviy korxonalar).

Shunday qilib, ushbu budget moliyalashi taqchilligi, mehnat bozoridagi vaziyatning o'tkirlashishi sharoitida davlat tomonidan mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlaridan foydalanish samaradorligini oshirishdan yashirin rezervlar va qo'shimcha resurslarni izlash lozim.

Bandlik siyosatini asoslashda mamlakat iqtisodiyotining iqtisodiy o'sish yo'liga chiqib olishi manfaatlaridan yondoshish lozim. Ushbu sharoitda bandlikni boshqarish va mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini o'zgartirish zarur. Shu sababli agar keyinchalik bandlik siyosati va ommaviy ishsizlikni to'xtatib qo'yish davlatning diqqat markaziga qo'yilsa, u holda bandlik va mehnat bozori sohasida stagnatsiyani kutish mumkin bo'ladi. Demak, davlatning bandlik sohasidagi siyosati samarali bo'lishi uchun u aniq insonga qaratilgan va muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak.

Ko'rsatilgan vositachilarning birinchi turiga yana rekruting agentligi kiradi. O'z firmalarida vakansiyalarni to'ldirishning uzoq muddatli va joriy jarayonlaridan manfaatdor, aniq ish beruvchilar buyurtmasi asosida ishlaydigan nodavlat tashkilotlari shunday muassasa hisoblanadilar. Rekruting agentliklari mavjud va shakllanayotgan vakansiyalar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritadilar, tashkil etilgan va prognoz qilinayotgan vakansiyalar, ish o'rinlarini izlovchilarni maqsadga yo'naltirilgan tayyorlash bilan shug'ullanadilar.

Oxirgi vaqtda elektron rekruting, deb nomlangan amaliyot keng tarqaldi. Elektron rekruting xodimlarni tanlash va izlash kesimida Internet imkoniyatlariga tayanadi. Elektron rekruting vakansiyalar mavjudligi to'g'risida ish o'rinlaridan manfaatdor nomzodlarni tezroq xabardor qilishni ta'minlaydi. Elektron rekruting asosiy instrumental agentlik veb sayti sifatida chiqadi.

Ishchi kuchi oldi-sotdisini tashkil

qilish bilan bog'liq va ish beruvchilar yoki yollanma ishchilar nomidan amalga oshiriladigan faoliyati mehnat bozoridagi vositachilikning ikkinchi turi hisoblanadi. Ish beruvchilar "jamoa mehnat shartnomalari", deb nomlangan shartnomalarni tuzishlari qulay bo'lib yollanma ishchilarning vakolatli birlashmalari shartnoma bo'yicha ularning sheriklari bo'lib chiqadilar.

DBX bandlik siyosatini davlat iqtisodiy siyosati bilan bog'lash, bu rejalarni mehnat bozori voqeligi va boshqa manfaatdor tomonlar manfaatlar bilan kelishtirish uchun aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish jarayoniga jalb qilinadi. Strategik va tezkor rejalashtirish asosida ma'lum maqsadlar ko'rsatiladi, ular ishni samarali tashkil qilish tadbirlariga kiritilgan bo'lishi kerak. DBX ning ishlash samaradorligi ko'rsatkichlari quyidagi toifalarga bo'linadi. (3-jadval).

imkoniyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bunday imkoniyatni aniqlash uchun tizimlashtirishning ayrim qonunlaridan foydalaniladi:

- o'z o'zini rivojlantirish qonuni: har bir tizim atrof-muhitga moslashayotganda o'z resurslari hisobidan amalga oshirishi va yangi sifatlarga ega bo'lishi lozim;

- o'zgartirish qonuni: har bir tizim muhit bilan aloqa va munosabatlarga kirishgan holda barchani jalb qiladigan muhit ta'siriga tortildi hamda muhit ob'ektlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi;

- integratsiya qonuni: tizimdagi barcha munosabatlar tizimning yagona markazidan tartibga solinadigan munosabatlar tizimli to'plamini shakllantirgan holda jamlanadi;

- nisbiylik qonuni: faqat ma'lum vaqt davomidagina haqqoniy bo'lgan tizim xossalari va munosabatlari mos keladi;

3-jadval

Davlat bandlik xizmat va uning ish samaradorligi ko'rsatkichlari

Faoliyat turi	Natijasi
Mehnat bozoridagi maqsadi	Ishga joylashtirish
Maqsadli guruhlar bo'yicha vazifalarni taqsimlash	Aniq maqsadli guruhga, masalan, uzoq muddatli ishsizlarga taqdim qilingan xizmatlar salmog'i
Mehnatni tashkil qilish	Vakansiyalarni to'ldirishga sarflangan vaqt; dasturdan to'la hajmda o'tayotgan shaxslar soni
Mijozlar tomonidan baholanishi	Ko'rsatilgan xizmatlardan qoniqish darajasi

Umuman, aholi bandligiga ko'maklashish jarayonining institutsionallashish darajasini baholash uchun yangi turdagi xizmatlar hajmi, rahbar xodimlar va ishlovchilar oldidagi zamonaviy vazifalar, ish stilingini o'zgarishi, samaradorlik va ish sifatini oshirishga doimiy intilish asosiy mezon bo'lishi kerak, ya'ni DBX muvaffaqiyatli faoliyatining pirovard mezoni amaldagi resurslar va real natijalar nisbatidan iborat bo'lishi zarur.

Baholash uchun qo'llanilayotgan ko'rsatkichlar tizimi natijalarning qiyosiy taqqoslanuvchanligini ta'minlashi kerak. Taqqoslash rejalashtirilgan maqsadlarga erishish nuqtai nazaridan avvalgi va boshqa tashkilotlar ko'rsatkichlariga nisbatan olib boriladi.

DBXdagi ko'plab funksional o'zaro aloqalarni tizimlashtirish nuqtai nazaridan DBX boshqaruv strategiyasi qoidalarini amalga oshirish

-ustuvorliklar qonuni: ijtimoiy-iqtisodiy tizim munosabatlarining ob'ektiv xossasi empirik bilimlar haqqoniyliги yetishmasligi sharoitida rivojlanish jarayonida ustuvor bo'lib qoladi;

- uyg'unlashtirish qonuni: har bir tizim muhit ta'sirida o'zining kuchli va kuchsiz xossalari funksional nisbatida muvozanatlashgan rivojlantirish uchun muhit yaratishga intiladi;

- tizimlilik qonuni: munosabatlar ob'ektning tizimlilik aloqalari mavjud bo'lganda, amal qilishi mumkin.

DBX dagi funksional o'zaro aloqalarni maqbullashtirish jarayonida uning muhim vazifalarini belgilash zarur.

DBX amal qilishi samaradorligini baholashning uslubiy ta'minotini shakllantirish zarur. O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori va

bandlik siyosatining maqsadga yo'naltirilganligini kuchaytirish taqozo etiladi. Bu ichki, demografik, iqtisodiy, tarmoq omillari bilan belgilanib, global ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar oqibatlarini bilan bog'liq tashqi ta'sirlar ostida chuqurlashmoqda.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi aholi bandligini tartibga solish davlat siyosatini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida ekspert so'rovnoma shaklida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi. Ekspert sifatida 7 kishidan iborat O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi Agentligi xodimlari so'rovdan o'tkazildi.

So'rovnoma qatnashgan 7 ta ekspertdan oltitasi O'zbekiston Respublikasining mehnat bozori quyidagi xususiyatlarga ega ekanligini e'tirof etdilar:

- 1990 yillardan boshlab, respublika mehnat bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik tendensiyasining asta-sekin pasayishi kuzatildi;

- dotatsiyali mintaqalar xususiyati qisqarib bormoqda;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan;

- ish haqi hajmi mintaqaviy xususiyatiga egaligi qayd etildi.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar qatoriga qo'shimcha quyidagilarni kiritish mumkin.

Barcha ekspertlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi mehnat bozoridagi vaziyatni maqbullashtirish uchun ta'sirchan choralar qabul qilinganligi ta'kidlandi.

"Respublikada bandlik siyosatini amalga oshirishda qanday qiyinchiliklarga duch kelinmoqda?" degan savolga javobda ekspertlar quyidagi variantlarni ko'rsatdilar:

- mavjud vakansiyalar haqidagi ma'lumotlar internetda joylashtirilgan;

- budjet tarmoqlarida, jumladan, tibbiyot va ta'limda ish haqining pastligi;

- ishsiz aholi uchun faqat qarindoshlik aloqalari mavjud bo'lgandagina ishga joylashish imkoniyati bo'ladi;

- agar kam ish o'rinlari yaratilsa, u holda yuqori talab qilinadigan tarmoqlarda ish joylari yetarlicha

yaratilmaydi.

Respublikada bandlik siyosatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida so'rovnoma qatnashgan ekspertlar qo'shimcha axborot-maslahat xizmatlarini tashkil qilish, mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, yangi ish o'rinlarini yaratishni, jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, baliq zavodlari, yog'ochni qayta ishlash korxonalari, ta'lim xizmatlari bozori islohotlarini jadallashtirishni taklif qildilar.

Respublikada amalga oshirilayotgan aholi bandligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarga faol va passiv siyosatlar doirasida mintaqadagi ijtimoiy-mehnat munosabatlari maqbullashtirish, mehnat bozoridagi keskinlikni yumshatishga qaratildi: yangi yaratilayotgan ish joyiga subsidiya olish imkoniyati yaratildi; ishsizlik nafaqasi hajmi oshirildi; ish o'rinlari vakansiyalari yarmarkalari muntazam ravishda o'tkazilmoqda; jamoat ishlari tashkil qilinmoqda; ishsizlar kasbiy tayyorgarlikdan o'tishga, malaka oshirish va h.k larga yuborilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Аҳоли бандлиги тўғрисида"ги Қонунини.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 декабрдаги "Олий Мажлиста Мурожаатномаси.// www.president.uz.
3. Андреев С.В. Кадровый потенциал и проблемы занятости в условиях перехода России к рыночным отношениям. М.: Институт социологии. РАН, 2010 г. 184 с.
4. Буторин А.М. Направления совершенствования регулирования занятости населения в регионе // Вестник экономической интеграции. 2010. №5. С.137-141.
5. Волгин Н.А. Социальная политика: учебник/под общ.ред. Н.А.Волгина М.: Изд-во «Экзамен», 2002 г. С.73.
6. Волгин П.А. Рынок труда. М.: Экзамен, 2003 г. 478 с.
7. Галкин А.И. Основные направления повышения эффективности и результативности деятельности органов государственной власти в Российской Федерации. / Актуальные проблемы и перспективы развития государственного управления: сб. науч. статей по материалам ежегодной науч.-практ. Конф. От 23 ноября 2013 г. /под ред. С.Е.Прокофьева, О.В.Паниной, С.Г. Еремина. М: Юстициформ, 2014.
8. Женева: Международное бюро труда, 2001. 228с. с.104.
9. Золотов А.В. О роли рабочего класса в современной экономике. // Вестник нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия: Экономика и финансы. 2004. №2. С.545.
10. История экономических учений: (современный этап): Учебник/ Под общ.ред. Худокормова А.Г.-М: Инфра. М. 1998.
11. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. / Дж.М. Кейнс. М: Прогресс, 1978.-494с.
12. Костин Л.А., Зупина Г.М., Султанова Р.М. Рынок труда и теория занятости: учеб.пос. М.: АТиСО, 1997, 424 с.
13. Пудич В. Проблема системности менеджмента в России. // Менеджмент сегодня. 2003. №2. С.43-55.
14. Фан Т., Хансен Э., Преис Д. Государственная служба занятости в условиях меняющегося рынка труда. Женева: Международное бюро труда, 2001. 228с. с.103.
15. Шубцова Л.В. Государственное антикризисное управление: системный подход.//Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2011. №5. С.11-19.
16. <https://stat.uz/>